

AN'NAVIY HONANDALIK TA'LIM JARAYONLARIDA MAQOM
IJROCHILIGINI O'RGATISHDA "USTOZ-SHOGIRD" AN'ANALARI

Akbarova Mohigul Gulomovna

Guliston davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada an'naviy honandalik ta'lim jarayonlarida maqom ijrochiligini o'rgatishda "ustoz-shogird" an'analari asosida mashg'ulotlarni olib borish jarayonlarida yuzaga keladigan muammolar va ularga samarali yechimlar hususida fikr yuritilgan. Keltirilgan fikr mulohazalar olib borilgan mashg'ulotlar natijasi o'laroq shakllangan hulosalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ustoz – shogird an'analari, an'naviy honandalik, tajriba, malaka, ko'nikma, musiqiy meros, musiqiy tarbiya, mashg'ulotlar.

Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnikaviy, zamonaviy jarayonda o'tmish an'analariга yangicha qarash, ilg'or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e'tibor qaratish ehtiyoji sezilmoqda. Zero, birgina komil inson atrofdaгilarga namuna bo'la oladi, tarbiyasida musiqa eng muhim, ya'ni insonlarni ruhiy hamda ma'naviy tarbiyasiga asos bo'la oladigan omil sifatida qaraladi. O'quv-ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bunga e'tibor berilishining sababi ham shunda ekanligi shubhasizdir. Qolaversa, ta'limda alohida-alohida standartlar tarzida ishlangan dasturlar asosida faoliyat olib borish yo'lga qo'yilmoqda. Natijada o'qitish mezonida qo'llanilayotgan adabiyotlar va mavjud barcha nashrlarni zamonaviy talab darajasidagi yangi qarashlar bilan boyitish, shaklan hamda mazmunan yahlit bir o'quv adabiyoti ko'rinishiga keltirib takomillashtirish taqozo etilmoqda.

O'zbek milliy musiqa ijrochiligi juda qadim va boy an'analarga ega bo'lib, xonandalik ovozlarning turlicha toifalarini hamda usluban rango-rang aytim xususiyatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu o'ziga xosliklarni yoritish, nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek ularni hozirgi zamon kasbiy musiqa ta'limi jarayoniga kengroq joriy qilish vazifalari bugungi kunda nihoyatda dolzib ahamiyat kasb etmoqda. Milliy mumtoz ashulachilik an'analari esa o'zbek an'naviy xonandalik san'atining asosi bo'lib rivojlandi. Har qanday sohani o'rganish, shu yo'nalishda izlanishlar olib borish, ilm qilish va eng asosiysi ushbu sohada ustoz sifatida bilim berib shogirdlar chiqarishdek ma'suliyatni bo'yimizga olgan ekanmiz biz avvalo shu sohaning sir sinoatini, uning kelib chiqishi tarixini, kechagi hamda bugungi kundagi holati haqida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz shart. Xo'sh biz bilamizki maqom san'ati an'naviy xonandalikning asosi va avvalo maqom nima? Qachon va qayerda vujudga kelgan/rivojlanish davrlari haqida ma'lumotlarni

bosqichma bosqich o'qib o'rganib boramiz. Bugungi kunda maqom xonandaligi fanini o'rgatishda biz mavjud bilimlar va an'analarga tayanamiz.

An'naviy honandalik ta'lim jarayonlarida ayniqsa maqomlarni o'zlashtirish va o'rgatishda ustozlardan meros "ustoz-shogird" tizimi hamda zamonaviy texnologiyalardan birgalikda foydalanish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Milliy qadriyatlarimizga tayangan ustoz shogird tizimida innavatsion texnologiyalardan samarali foydalanish va zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash orqali yosh kadrlarni, yosh maqomdonlarni tayyorlashda mumkin. O'zbek an'naviy xonandalik san'ati amaliyotida juda ko'p ovoz turlari uchraydi. Mutaxassis xonandalar tomonidan ular o'z xususiyat va sifatlaridan kelib chiqib nomlanib kelingan. Xonandaning ovozi faqat ularning eshutilishi bilan emas, balki ijro diapozoni, ovozning ohangdorligi, talafuzning to'g'riligi, hush yoqimliigi bilan ham xarakterlanadi. An'naviy honandalikda ijro san'atini o'rganishda o'zbek mumtoz hofizlari ijrochilik an'analarning negizida faqat bir ashulachilik uslub turadi deyish noo'rin. Chunki, og'zaki an'anaga munosib bo'lgan musiqa merosimizning ijro jarayonlari o'ziga xos shart-sharoit, joy - maqom bilan bog'liqdir. Shu bilan birga musiqa san'atining namoyandalari bir qator janrlarning targ'ibotchisi sifatida faoliyat ko'rsatganlar Ustozona musiqa ijrochilari talqinida shiddat, zavq-shavq, joziba yuqori tembr, badihago'ylik va sayqal kabi jihatlar munosib tizimini topishi uchun ikki-uch ashulachilik uslubini bilish va undan o'rinli, munosib foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozimdir.

An'naviy xonandalikning maqsadlaridan yana biri Respublikamiz badiiy jamoalariga mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iboratdir. Talabalarga o'zbek xalq qo'shiqlari hamda "Shashamaqom" haqida ma'lumotlar berish bilan birga, yaratilish tarixi, ijro diapazoni, ovozni ishlatish, dinamik belgilar, xonandaning ijro holati, asarlardagi o'lchovlar, usullar, kuylarning shaklan tuzilishi, ijro texnikasi, o'rganilayotgan asarlarning mualliflari haqida ma'lumotlar va zarur ko'rsatmalar beriladi. O'zbek milliy musiqa merosi o'zbek yoshlari ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, endilikda yoshlar tarbiyasida milliy musiqa ilmini chuqur egallashlari, ijodiy yangiliklarini kengaytirishlari maqsadga muvofiqdir. An'naviy xonandalik yo'nalishida bilim berish boshqa sohalarga nisbatan anchayin murakkab va uzoq vaqt talab etadi. Ushbu soha ustoz - shogird an'analari hamda asriy davom etayotgan ijro an'analarga taqlidni ham talab qiladi. Umuman olganda ta'lim berish jarayoni hech qachon onson kechmagan ham. Bugungi kun zamonaviy yondashuvda kompetensiya tushunchasi keng tarqalib har bir sohaning o'z kompetentligi mavjud. Vokal san'ati. An'naviy honandalik yo'nalishi malaka talablarida keltirilgan Kasbiy kompetensiyalarga bir nazar tashlaymiz:

- o'zbek maqom san'ati rivoji uchun ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, kasbga doir o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma va darsliklar yarata olish, o'zbek maqom

san'atini ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari orqali ko'plab mamlakatlarga keng targ'ib eta olish;

- maqom ansambli va boshqa jamoalarda faoliyat yuritayotgan vaqtda ta'lim jarayonida olgan barcha bilim va ko'nikmalardan unumli va sifatli foydalana olish;

- insonlarning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan foydalana olish;

- maqomlar, mumtoz ashulalarni yakka xolda va xonandalar ansambli bilan hamnafaslik hamda jo'rovoqlikda o'rganib ijro eta olish;

- maqom asoslari, maqom tarixi, ijrochilari chuqur bilimga ega bo'lishi va ilmiy nazariy izlanishlar olib borish; maqomlarda ko'p uchraydigan aruz vazni, mumtoz she'riyat poetikasini chuqur tahlil qila olish; fors tilini o'rganishi, nafaqat muloqot uchun balki maqomlardagi forsiy so'zlar va atamalarni talqin eta olishi;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- maqom xonandaligi bo'yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini egallash va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish;

- ijrochilik faoliyatida ijro etayotgan asarini ustozlarida olgan bilim, ko'nikma va malaksidan kelib chiqib, mukammal ijro eta olish; va h. k. Kabi kasbiy kompetensiyalar hamda pedagogic kompetensiyalarni umumlashuvi asosida An'anaviy honanadalik umummilliy kompetensiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu sohada avvalo pedagogik kompetensiya jarayonida Ustoz -shogird an'analarini alohida aytib o'tish va aynan ushbu so'zga kata urg'u berish lozim. Boshqa sohalardan farqli o'laroq An'anaviy honanadalik yo'nalishi ummummilli urf odatlar, an'analar, nasriy qadryatlar, mmilliy madaniy merosimizning amalda mavjud dddurdonalari asosida tarbiyalanadi. Avvalo ushbu soha vakillari musiqiy merosimizning amaliy jihatlarini va shu bilan birga nazariy jihatlarini ustozlaridan eshitish, tushunish va o'zlarida amaliy tahlil qilish jarayoni orqali pedagogic ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Biz san'atning qaysi bir sohasi bo'lmasin umumiy jihatni avval aniqlaymiz va shu jihatlarni talabaga singdiramiz. Xonanda har bir asarni ichki dunyosini tushunib, uning obraziga tayyorlangan holda kira olishi va shu obrazni ijodkor tasavvur qilgandek yarata olishi ovoz talqinida muhimdir. Shu bilan birga ovoz imkoniyatlarini, sifatini ko'rsatishda avvalo o'z ijrosini o'zi tinglashi va o'z bilimi doirasida to'g'ri idroklashi lozim. Bu jarayon musiqa san'atida muhim omillardan bo'lgan, ayniqsa, cholg'u va ashula ijrochiligida katta ahamiyatga ega bo'lgan va ijro bilan bevosita bog'liq bo'lgan qator o'ziga xos xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ijro asar ruhiga, obraziga kirishi va o'z imkoniyatlarini ko'rsatishdagi zarur omillar deb hisoblanadi.

- So'z matni jumllalarining ijrodagi yakuni;

- Kuy tuzilmalarini tarkibiy ravonligi;
- So'z bo'linishlari;
- Musiqiy kuy bo'laklari frazalari;
- Tinish jarayonlari pauzalar;
- Nafas olish joylari uslublari;
- Kuyda tovush chuzimlarini uzaytirish uslubiyatlari;
- Quydagi metro-ritmik tuzilmalarini aniqqaytarish;
- Kuyda ma'lum bo'laklarning boshqa balandlikda ketma-ket qaytarish;
- Og'zaki tekstdagi tinish belgilari;
- Asarning kadans davralari;
- Kuyda metro-ritmik tuzilmalarni o'zgarishlar bilan qaytaralishi.

Muallif qayd etgan sifatlarni xonanda nazarda tutib, mumkin darajada rioya qilsa, xonish omilidagi ijro har tomonlama bu jarayonning mohiyati nukta nazaridan mukammal ifodasini topadi. Musiqiy asarning talqini, so'zdan, matndan mustasno holda, o'zining ichki qonuniyatlariga bo'ysunishi hammaga ayon. Bu qonuniyatlar tovushkator, uslub tuzuk, turg'un tovushlar va kuyning tarkibiy shakllari bilan izohlanuvchi tomonlari orqali xarakterlanadi.

Xonanda talabalarni rivojlantirish va tarbiyalash, ularning ijro mahoratini oshirish muammosiga bugungi kunda musiqashunoslik va pedagogikada katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda musiqa pedagogikasi talabalarning kuylash va musiqiy eshitish qobiliyatlarini tizimini shakllantirish muammosini o'rganishda ma'lum yutuqlarga erishmoqda. Xonandalik sir sinoatlarini o'rganish ko'rinishidan soda va onson jarayondek tuyulsada juda kata mehnat va qat'iyatni talab etadi. Chunki musiqa ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Masalan, o'qituvchi talabaga xonandalik savodini o'rgatish jarayonida musiqa ohangini chalib yoki kuylab ko'rsatganda ohang va so'z, asosan, tinglash bilan qabul qilinadi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi, ya'ni amaliyotdagi jarayondadir. Darslarda talabaning ijro ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan tamoyillarga tayaniladi. Ijro ko'nikmalarini shakllantiruvchi mashqlarda asosiy vazifalaridan biri talabaning har vaqtda amalda qo'llashlari mumkin bo'lgan mustahkam bilim, ko'nikma va malakalami egallashlaridir. Ya'ni bu jarayonda mustahkamlik tamoyillari talabalarni tez va aniq eslay oladigan, xotirada uzoq saqlanadigan, hamisha ijroda mohironalik bilan qo'llay oladigan bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish zarur ekanligini anglatadi. Mashg'ulotlarda dasturlangan bilim beribgina qolmay, balki bo'lajak ijrochilarning xonandalik asoslarini mukammal egallashlarini ham ta'minlab berishi kerak. Ustozlar bu jarayonlarda mustahkamlikni ta'minlaydigan tizimli usullar hamda vositalarni mukammal bilish bilan birga mukammallik bilan talabaga ham o'rgata olishi kerak. Ijrochilik uslublarini idrok qilishni shakllantirish, qo'shiqni badiiy ijro etish va musiqa

savodidan olgan bilimlarni o'zlashtirishning mustahkamligini ta'minlash hamda o'quvchilarni musiqiy savodini rivojlantirish Joriy takrorlash yoki boshlang'ich mustahkamlash o'quvchilarning hozirgina tinglagan musiqasini esga tushurishni takrorlash orqali amalga oshiriladi.

Hofiz-xonanda uchun ijro jarayonida so'z va ohangni idroklagan holda talqin etishi muhim. Unda so'z shaklini buzilmasligi va ohangga mos tushishi asosiy omil sifatida qadrlanadi. Aslida bu jarayon hofiz - xonanda uchun ijro mohiyatining asosi bo'ladi. Mumtoz xonandalik san'atida aytimlar o'z janri doirasida so'z-matnlariga ega bo'lgan. Bular orasida maqomlarning so'zlari turli xususiyatli g'azallardan iborat bo'lgan. Oldinlari diniy va ishqiy mavzularga solib aytilib kelingan maqomlar namunalari keyinchalik mumtoz shoirlarning dunyoviy, lirik hamda ishqiy g'azallari bilan aytish rasm bo'ldi. Eng asosiysi matnning ohang ma'nosi bilan mutanosibligidir. Chunki, xar bir maqom o'z tabiatidan kelib chikib turlicha xarakterlanadi. Xalq musiqasi ijrochiligida, ayniqsa badihago'ylik, erkin talqinga asoslangan ijro turlarida, asar tarkibi qisman bo'lsada o'zgarishga uchraydi.

Xonandalik ko'nikmalarini egallash uchun olib borilayotgan darslarining samaradorligi birinchi navbatda o'qituvchi ijodiy va ijobiy xususiyatlariga, uning tajribasi hamda kasbiy bilimiga, pedagogik mahoratiga bog'liq bo'ladi. Badiiypedagogik material o'qituvchi tomonidan diqqat bilan tanlanishi kerak. Materialni musiqiy, vokal, texnik va ijro qiyinchiliklari nuqtai nazaridan tahlil qilish qobiliyati o'qituvchining zaruriy sifatidir. Keng qamrovli pedagogik musiqiy materialga ega bo'lish va uni qo'llay bilish pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining shartlaridan biridir. Asarning sifatli ijro etilishi uchun uni o'rganish va kuylash xarakterini yaxshi o'zlashtirilishidadir. Yuqoridagi sifatlariga ega ustozdan bilim olgan ijrochi talaba avvalo shakllangan ijro mahoratiga, nazariy va amaliy jihatdan keng va rang-barang musiqiy repertuarni o'zlashtirishga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki biz talaba va ustozlar o'rtasidagi ijodiy jarayonlarda talabalarning ijobiy xususiyatlarni shakllatiruvchi mashg'ulotlar davomida nafaqat pedagogic hamda psixologik yondashishi maqsadga muvofiq bo'ladi, sababi ijodkor ruxiyatan tasirchan va tez emotsiyaga berilish xususiyatlari yuqori bo'ladi. Ayni shu sabablar tufayli nozik qalb egalariga san'atning sir sinoatlari xonandalik savodini o'zlashtirishlari uchun ijodkorona yondashib, nazariy va amaliy bilimlarni umumlashtirgan holda ta'lim berish ko'zlangan maqsadga yetish kaliti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING PEDAGOGIC KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA BU JARAYONDA DUCH KELINADIGAN MUAMMO VA YECHIMLAR Oriental Art and Culture, 2023

2. AN'ANAVIY XONANDALIKDA OVOZ XUSUSIYATLARI, TA'LIMDA INNOVATSIYON YONDASHUVLAR Mamlakat Axmadovna Ulasheva "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022
3. AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARIGA BILIM BERISHDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALAR Moxigul Gulomovna Akbarova Bakhodir Xudoykulovich Xodjakulov "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022
4. Ma'rufjon Abdumutalibovich Ashurov O'ZBEK AN'ANAVIY XONANDALIK SAN'ATI AMALIYOTIDA JUDA KO'P OVOZ TURLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <http://oac.dsmi-qf.uz> Volume 4 Issue 4 / August 2023
5. BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI ASOSIDA O'QITISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <https://cyberleninka.ru/article/> Oriental Art and Culture, 2023
6. AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING PEDAGOGIC KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA BU JARAYONDA DUCH KELINADIGAN MUAMMO VA YECHIMLAR Mohigul Gulomovna Akbarova "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz> Volume 4 Issue 6 / December 2023
7. XONANDALIK KO 'NIKMALARINI MUKAMMAL O 'RGANISH JARAYONLARIDA YUZAGA KELADIGAN KAMCHILIKLAR VA YUTUQLAR. Po'latov Javohir Jahongir o'g'li , Akbarov Mohigul Gulomovna ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ 2024